



MOTOR ALALIYA BO'LGAN BOLALARDA NUTQIY VA NONUTQIY TOVUSHLARNI RIVOJLANTIRISH

Jamilova Dilnoza Muzaffar qizi,

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 52

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1494>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

motor alaliya, nutqiy tovushlar, nonutqiy tovushlar, nutqni rivojlantirish, logopedik mashqlar, multimodal yondashuv, artikulyatsion gimnastika, sensor mashqlar, logoritmika, musiqa terapiyasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada motor alaliya tashxisi qo'yilgan bolalarda nutqiy va nonutqiy tovushlarni shakllantirish va mustahkamlash jarayoni yoritilgan. Maqolada tovush turlari o'rtasidagi farqlar tahlil qilinib, zamonaviy logopedik yondashuvlar asosida samarali usullar tavsiflangan. Nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirishda multimodal yondashuv, sensor mashqlar, artikulyatsion gimnastika, logoritmika hamda musiqiy terapiya elementlarining ahamiyati ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Ushbu maqola motor alaliya tashxisi qo'yilgan bolalarda nutqiy va nonutqiy tovushlarni shakllantirish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni tizimli ravishda o'rganadi. Maqolada nafaqat bolalarning artikulyatsion va fonetik rivojlanishiga e'tibor qaratilgan, balki ular bilan ishlashda psixomotor va sensor ko'nikmalarining o'rni ham yoritilgan. Shu bilan birga, zamonaviy logopedik metodikalar, jumladan multimodal yondashuv, PECs tizimi, logoritmika va musiqiy terapiya elementlari integratsiyalangan yondashuv sifatida ko'rib chiqilgan. Maqola shuningdek, motor alaliya bilan og'riq bolalarda individual yondashuvning zarurligini ta'kidlaydi va terapevtik mashg'ulotlarning muvaffaqiyati nafaqat bolaning nutqiy ko'nikmalariga, balki uning ijtimoiy-muloqot qobiliyatlari, emotsional holati va psixomotor rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari logopedlar, maxsus pedagoglar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar shaklida taqdim etilgan bo'lib, bolalarni uy sharoitida qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llarini ham o'z ichiga oladi.

Kirish. Alaliya — bolaning prenatal yoki hayotining dastlabki rivojlanish davrida bosh miya yarim sharlari nutq zonalarining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan patologik holat bo'lib, u normal fiziologik eshitish va intellekt saqlangan holda nutqning yo'qligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat bolaning nutqiy rivojlanishida sezilarli kechiklovlar va kechikishlarga olib keladi.

Alaliya turli xil sabablarga ko'ra rivojlanishi mumkin, lekin tadqiqotchilar uning shakllanish mexanizmi va og'irlik darajasidan qat'i nazar, umumiy tasnifga ega ekanligini aniqlashgan. Shu sababli, mutaxassislar alaliyaning qanday turlari borligini aniqlab, ularni guruhlarga ajratishgan. Hozirgi kunda logopedlar tomonidan alaliyaning V.A.Kovshikov tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyasidan keng foydalaniladi. Ushbu tasnifga ko'ra, alaliya quyidagi turlarga bo'linadi: ekspressiv (motor), impressiv (sensor) va aralash (sensomotor yoki motosensor) alaliya. Klinik kuzatuv natijalariga ko'ra, ekspressiv alaliya retseptiv (sensor) alaliyaga qaraganda ancha keng tarqalgan, aniq statistik ma'lumotlar yo'q¹.

Motor alaliya — bolaning nutqiy rivojlanishida kechikish yoki buzilish bilan tavsiflanadigan nevrologik patologiya bo'lib, u miyaning nutq markazlarining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu patologiya bolaning normal fiziologik eshitishi va intellektiga ta'sir qilmaydi, ammo nutqning to'liq shakllanishi va talaffuzi sezilarli darajada cheklangan bo'ladi. Motor alaliya nafaqat nutqiy faoliyatni, balki bolalarning psixomotor rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuvchanligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda bolalarda motor alaliyaning oldini olish va nutqni rivojlantirish masalalari zamonaviy logopediya va psixopedagogika ilmiy fanining dolzarb yo'nalishiga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motor alaliyalı bolalarda nutqiy va nonutqiy tovushlarni tizimli shakllantirish orqali nafaqat so'z boyligi va grammatik qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bolalarning psixomotor ko'nikmalarini va ijtimoiy

kommunikatsiya malakalarini yaxshilash mumkin. Shu bois, logopedik mashg'ulotlar individual yondashuv, multimodal metodlar, sensor mashqlar va musiqa terapiyasi elementlarini o'z ichiga olgan kompleks tizim asosida olib borilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Motor alaliya bilan og'riq bolalarda nutqiy va nonutqiy tovushlarni rivojlantirish masalalari logopediya fanida keng o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alaliyaning turli shakllari bolaning artikulyatsion va fonetik rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, V.A. Kovshikovning tasnifi asosida motor (ekspressiv) alaliya bolalarda nutqiy harakatlarning buzilishi va so'z boyligining cheklanishiga olib keladi².

Logopedik amaliyotda an'anaviy metodlar — artikulyatsion gimnastika, ovoz chiqarishga tayyorlash mashqlari va repetitsiyalar — bolalar nutqini rivojlantirishda samarali vositalardan hisoblanadi³. Shu bilan birga, S.S. Lyapidevskiy motor alaliya bilan bog'liq nevrologik asoslarni tahlil qilib, nutqiy va psixomotor rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi⁴.

So'nggi yillarda multimodal yondashuv va sensor mashqlar bolalarda tovushlarni eslab qolish va talaffuzni mustahkamlashda muhim natijalar beradi. Masalan, musiqiy terapiya va logoritmik mashqlar tovushlarni ritmik va intonatsion jihatdan o'rganishga yordam beradi, bu esa bolaning nutqiy faoliyatini yaxshilaydi⁵. Shuningdek, PECs (Picture Exchange Communication System) tizimi bolalarning nutqiy faoliyatini tashqi stimullar orqali rag'batlantiradi va mustaqil nutqni shakllantirishda samarali ekanligi ko'rsatilgan⁶.

Shomaxmudova va Mo'minova tadqiqotlarida motor alaliyalı bolalarda nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish metodlari tahlil qilingan, bu esa amaliyotda logopedlarning ish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi⁷. Ayupova va Babayeva esa nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasini keng qamrovli yoritib, individual yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi⁸.

¹ Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления. — Санкт-Петербург: КАРО, 2006. 12-с.

² Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления. — Санкт-Петербург: КАРО, 2006. 12-с.

³ Логопедия (под ред. Л.С. Волковой). — М., 2002.; Логопедия (Л. МРминова, М. Аюпова). — Т., 1993. Аюпова М.У. Логопедия. — Ташкент: O'zbekiston faylasufllari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. — 560 b.

⁴ Ляпидевский С.С. Невропатология. — М., 2001.; Филичева Т.Б. и др. Дети с фонетическим недоразвитием. Изд-во ГНОМ и Д. - М., 2000.

⁵ Филичева Т.Б. и др. Дети с фонетическим недоразвитием. Изд-во ГНОМ и Д. - М., 2000.; Mo'minova L.R., Amiraidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U.,

Yakubjanova D.B., Jalolova Z.M., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. — Tashkent: O'zbekiston faylasufllari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 157-b.; Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. — Tashkent: "Barkamol fayz media", 2018. — 432 b.

⁶ Shomaxmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. — Tashkent: "Ilm Ziyo", 2013. — 130 b.

⁷ Ayupova M.Y. Logopediya. — Tashkent: O'zbekiston faylasufllari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. — 560 b.

⁸ Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. — Tashkent: "Barkamol fayz media", 2018. — 432 b.

Metodologiya. Tadqiqotda motor alaliyali bolalarda nutqiy va nonutqiy tovushlarni rivojlantirish jarayoni o'rganildi. Asosiy yondashuv empirik va amaliy bo'lib, bolalar bilan logopedik mashg'ulotlar bosqichma-bosqich olib borildi. Tadqiqotda kuzatish, diagnostika, eksperimental mashg'ulotlar va natijalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Mashg'ulotlar individual rivojlanish darajasiga moslashtirilib, multimodal yondashuv, sensor mashqlar, PECs tizimi, logoritmika va musiqa terapiyasi elementlari integratsiyalangan. Ushbu metodologiya orqali bolalarning tovushlarni talaffuz qilish malakasi, nutqiy ifoda qobiliyati va kommunikativ faoliyati baholandi hamda nutqni rivojlantirish samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari. Motor alaliya bilan bog'liq nutqiy rivojlanishning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Nutqiy harakatlarning buzilishi - motor alaliya bilan og'riq bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiynaladilar, ba'zan esa umuman gapira olmaydilar. Ularda artikulyatsion mushaklarning sustligi yoki diskoordinatsiyasi kuzatiladi. Bu esa to'g'ri tovush hosil qilish va gapirish jarayonini murakkablashtiradi. Bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi yoki ularni almashtirib qo'yadi. Ba'zi tovushlarni aytish qiyin bo'lishi sababli, ular talaffuz qilinmaydi yoki buzilgan holda chiqariladi. Tovushlar o'rtasidagi farqlarni yaxshi ajrata olmaydilar.

Leksik-grammatik tizimning sust rivojlanishi - bunday bolalar so'z boyligining cheklanganligi, so'zlarni noto'g'ri ishlatish va grammatik shakllarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan, fe'llarni vaqt bo'yicha noto'g'ri qo'llash, ot va sifatlarni kelishik qo'shimchalarisiz ishlatish, so'zlarning to'g'ri shaklini tanlashdagi xatoliklar keng tarqalgan. So'z boyligi juda sust rivojlanadi, yangi so'zlarni o'zlashtirish qiyin kechadi. So'z birikmalari va gap tuzishda muammolar bo'ladi.

Fraza nutqining yetarlicha rivojlanmaganligi - gap qurish va uzluksiz fikr ifodalash qobiliyati zaif bo'ladi. Natijada, bolaning so'z birikmalari oddiy va cheklangan bo'lib, uzoq va murakkab gaplarni tuza olmaydi. Ba'zan ular faqat alohida so'zlarni aytish bilan cheklanishadi.

Tushunish qobiliyatining nisbatan saqlanganligi - motor alaliya tashxisiga ega bolalar odatda atrofda qilayotgan nutqni tushunishadi, ammo og'zaki javob berishda yoki mustaqil gapirishda muammolarga duch keladilar. Ularning passiv so'z boyligi faol so'z boyligiga nisbatan ancha rivojlangan bo'ladi.

Psixomotor rivojlanishdagi xususiyatlar - bunday bolalar nafaqat nutqiy, balki umumiy motorik qobiliyatlarning sustligi bilan ham ajralib turadi. Ular harakatlarni muvofiqlashtirishda, mayda motorika bilan bog'liq faoliyatlarda (masalan, yozish, rasm chizish, tugmalarni qadalash) qiyinchiliklarga ega bo'lishlari mumkin. Bu esa nutqiy harakatlarning yanada qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Motor alaliya bolalarning nutqiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan murakkab nutqiy nuqson bo'lib, u individual va tizimli yondashuvni talab qiladi. Vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan pedagogik va logopedik ishlar bolaning nutqiy rivojlanishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, agar alaliya jismoniy nuqsonlar yoki mushaklarning noto'g'ri ishlashi bilan bog'liq bo'lsa, maxsus tibbiy va fizioterapevtik muolajalar ham qo'llaniladi. Miofunktsional terapiya yuz mushaklari va nutq apparati harakatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan bo'lib, u logoped va fizioterapevtlar tomonidan olib boriladi. Ushbu terapiya nafaqat nutq rivojlanishiga, balki yutish, nafas olish va ovoz chiqarish funksiyalarini yaxshilashga ham yordam beradi.

Motor alaliyaning og'ir shakllarida bolalar nutqni butunlay yo'qotishi mumkin. Bunday hollarda ular imo-ishoralar, mimikalar hamda g'o'ng'irlash va onomatopeyalar orqali o'z fikrlarini ifodalashga harakat qiladilar. Nutq terapiyasi, psixologik va nevrologik muolajalar bunday bolalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, erta tashxis va to'g'ri reabilitatsiya nutq rivojlanishining yaxshilanishiga yordam berishi mumkin.

Motor alaliya - bu bolalarning nutq apparati to'liq sog'lom bo'lishiga qaramay, miyaning nutq markazlari zararlangani sababli nutq faoliyatining buzilishi bilan tavsiflanadigan nevrologik holatdir. Ushbu patologiya odatda erta bolalik davrida shakllanadi. Motor alaliyalik bolalar atrof-muhitdagi nutqni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishlari mumkin, biroq ularning so'zlarni talaffuz qilish, grammatik jihatdan to'g'ri gap qurish hamda bog'liq nutqni shakllantirish jarayonida sezilarli qiyinchiliklar kuzatiladi.

Nutqning to'laqonli rivojlanishi bola shaxsining shakllanishi va atrof-muhit bilan o'zaro aloqasini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydi. Agar bola nutqida kechikish yoki rivojlanish nuqsonlari kuzatilsa, bu uning psixologik va ijtimoiy holatiga ta'sir qilishi mumkin.

Alaliyaning oldini olish va davolash tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Nutq inson tafakkurining eng oliy shakli bo'lib, uning rivojlanishi bolaning kelajakdagi ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, alaliyaning ilk belgilari paydo bo'lishi bilan mutaxassislariga murojaat qilish va kerakli chora-tadbirlarni ko'rish juda muhimdir.

Muhokama. Nutq faoliyati bola rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u nafaqat kommunikativ ehtiyojini, balki intellektual o'sishni ham belgilaydi. Nutqiy faoliyatning dastlabki bosqichlarida bolaning tovush chiqarish qobiliyati, ayniqsa, nutqqa tayyorgarlik sifatida qaratiladigan nonutqiy tovushlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy tovushlar — bu fonetik tizimga oid bo'lib, so'z tarkibida aniq artikulyatsiya bilan ifodalanadigan fonemalardir (masalan, "m", "b", "a", "k" va boshqalar). Ular lug'aviy birliklar (so'zlar)ni tashkil qilishda ishtirok etadi va grammatik tuzilmalarning asosini belgilaydi.

Nonutqiy tovushlar esa inson tomonidan tabiiy holda yoki maxsus taqlid orqali chiqariladigan, ammo so'zsizlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlardir. Masalan: kulgi, yig'i, qichqiriq, hushtak, hayvon tovushlariga taqlid qilish, aksirish, pichirlash va hokazo. Ushbu tovushlar bolaning ovoz chiqarish apparatini (nafas, rezonans, artikulyatsiya) tayyorlashda asosiy rol o'ynaydi.

Motor alaliya holatida nutqiy tovushlar birlamchi shakllanmaydi. Shu bois logopedik mashg'ulotlarda dastlab nonutqiy tovushlar bilan ishlash orqali bola nutqqa tayyorlanadi. Bu jarayonda bolaning nafasini boshqarish, rezonansni his qilish, artikulyator a'zolarining harakatchanligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Nutqiy va nonutqiy tovushlar o'rtasidagi farqni anglash — logopedik tashxis va davolash strategiyasini to'g'ri belgilashda muhim o'rin tutadi.

Motor alaliya bo'lgan bolalarda tovush chiqarish jarayoni sekin, murakkab va bosqichma-bosqich kechadi. Ushbu holatda markaziy nutq motorikasi yetarlicha shakllanmagan bo'lib, bola so'zlarni emas, hattoki oddiy tovushlarni ham mustaqil ravishda hosil qila olmaydi. Shu bois, tovush chiqarish malakasini rivojlantirishda sistemali, ketma-ketlikka asoslangan yondashuv zarur hisoblanadi.

Quyida tovushlarni shakllantirish va mustahkamlashning asosiy bosqichlari bayon etiladi:

1. Tayyorlov bosqichi (ovoz chiqarishga tayyorlash)

Bu bosqichda bolaning ovoz chiqarish apparati — diafragma, nafas yo'llari, ovoz bog'lamlari va artikulyatsiya organlari (til, lablar, og'iz bo'shlig'i) faoliyatini faollashtirishga qaratilgan mashqlar bajariladi. Asosiy maqsad — bolaning nonutqiy tovushlarga javob qaytarishiga, ularni takrorlashi va mustahkamlashiga erishish.

Mashqlar:

- Hayvon tovushlariga taqlid: "miyov", "vov", "mu-u" va boshqalar;

- Qichqirish, kulgi, hushtak, nafasni chiqarish-olish;
- Oddiy ovoz chiqarish: "aaa", "mmm", "uuu" kabi tovushlar.

2. Nonutqiy tovushlardan nutqiy tovushlarga o'tish bosqichi

Bola turli nonutqiy tovushlarni chiqarishga o'rgangach, bosqichma-bosqich ular asosida **nutqiy tovushlarga o'tish** amalga oshiriladi. Bu jarayon o'yinlar, taqlidlar va interaktiv mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Masalan:

- "Mmm" tovushi orqali "mama", "mo" kabi sodda so'zlar hosil qilish;

- "Brrr" tovushi orqali "bur", "bar", "bo" kabi tovushlar bilan ishlash.

Bu bosqichda tovushlarni so'z ichida to'g'ri talaffuz qilish va ularni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tovushlarni differensial rivojlantirish va mustahkamlash bosqichi

Ushbu bosqichda bola tomonidan chiqarilayotgan nutqiy tovushlar ustida chuqurlashtirilgan ishlov beriladi. Bunda:

- Tovushlar orasidagi farqlar (masalan, "m" va "n", "b" va "p") ajratiladi;

- Tovushlar so'z boshida, o'rtasida va oxirida to'g'ri talaffuz qilinishiga erishiladi;

- Ovozning kuchi, temбри, davomiyligi va intonatsiyasi ustida ishlantadi.

Mashg'ulotlar davomida har bir bolaning individual rivojlanish darajasi inobatga olinadi. Shuningdek, vizual, eshituv va kinestetik

sezgilaridan foydalanish orqali tovushni eslab qolish va uni mustahkamlashga e'tibor qaratiladi.

4. Tovushlarni amaliy nutqqa kiritish bosqichi

Tovushlar to'g'ri chiqarilishini o'rganganidan so'ng, ular nutqiy faoliyatga tabiiy kiritiladi. Bu bosqichda:

- Tovushlar kichik gaplarda, so'z birikmalarida qo'llaniladi
- O'yinli nutq mashg'ulotlari orqali bola tabiiy ravishda so'zlashishga undaladi
- Rolli o'yinlar, rasmlar asosida hikoya tuzish, savol-javob mashqlari o'tkaziladi

Bu bosqichda bola nafaqat tovushni to'g'ri aytadi, balki uni kontekstda ishlatishni o'rganadi. Bu esa butun nutq faoliyatining tiklanishiga olib keladi.

So'nggi yillarda motor alaliya bilan og'rigan bolalarda nutqni rivojlantirish sohasida an'anaviy logopedik metodikalar bilan bir qatorda innovatsion, multimodal va integrativ yondashuvlar keng qo'llanila boshladi. Ushbu bo'limda nutqiy va nonutqiy tovushlarni qo'yish va mustahkamlashda samaradorligi yuqori bo'lgan bir nechta ilg'or usullar tahlil qilinadi.

1. Multimodal yondashuv.

Multimodal yondashuv — bu bola nutqini rivojlantirishda bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish, kinestetik va harakat reflekslarini faollashtiruvchi metoddir. Bunday yondashuvda tovushlar nafaqat aytiladi, balki ular bilan bog'liq harakatlar, piktogrammalar yoki rasmlar orqali esda qoladi.

Masalan, "M" tovushi aytilganda bola qo'lini og'ziga qo'yadi (harakat). Rasmda "ona" rasmi ko'rsatiladi. Tovush balandlikda va pichirlab takrorlanadi (intonatsion mashqlar). Buning afzalligi — tovushning esda saqlanishi osonlashadi, harakat va obraz orqali miya faolligi oshadi.

2. Tovushlar bilan sensor o'yinlar.

Sensor (sezgilar asosidagi) o'yinlar bolaning tovushni nafaqat eshitish, balki hissiy va jismoniy sezish orqali o'zlashtirishiga yordam beradi. Masalan:

- Tovush chiqarilganda bola qo'lga tebranuvchi vibrator beriladi
- "S" tovushi aytilganda bola havo oqimini yuzida his qiladi
- "P" tovushi mashqlari paytida paxta parchasini puflash

Afzalligi: tovush chiqarish jarayoni bola tanasi orqali "his" qilinadi, bu esa mustahkamlashni tezlashtiradi.

3. Vizual-muloqot kartochkalari (PECs) yordamida nutqiy faollikni oshirish.

PECs (Picture Exchange Communication System) — nutqiy faoliyatda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan rasmi aloqa vositalari tizimi. Bu usul yordamida bola:

- Rasmga qarab tovush aytadi;
- Rasm bilan tovushni bog'laydi;

• Nonutqiy tovushlar asosida kontekst yaratadi (masalan: mushuk rasmi — "miyov").

Afzalligi: aloqa uchun tashqi stimullar yordamida mustaqil nutqni rag'batlantiradi.

4. Artikulyatsion gimnastika va nafas mashqlari integratsiyasi.

Yangicha yondashuvda artikulyatsion mashqlar nafaqat mexanik ravishda, balki o'yin shaklida, tovush bilan bog'liq kontekstda bajariladi. Masalan: "A" tovushi uchun og'izni katta ochish, so'ngra "ay" deb qichqirish;

"B" tovushi uchun puflash, keyin "ba-ba" aytish va sharni uchirish.

Bunday mashqlar tovush chiqarish apparatini tayyorlash bilan birga bola uchun qiziqarli bo'ladi.

5. Logoritmika va musiqiy terapiya elementlari.

Logoritmik mashqlar tovush, ritm, harakat va musiqa uyg'unligida amalga oshiriladi. Masalan, baraban urilganda bola "bo-bo" tovushini aytadi, qadam tashlashda "da-da", "ta-ta" tovushlarini ritmik tarzda takrorlaydi. Uning afzalligi ritm va harakatlar orqali tovushlar avtomatiklashadi, bola psixomotor faoliyatini faollashtiradi.

Umumiy tavsiyalar — har bir metod individual bola imkoniyatlariga moslashtirilishi lozim. Nutqiy va nonutqiy mashqlar o'rtasida bosqichma-bosqich o'tish amalga oshiriladi. Emotsional jihatdan ijobiy muhit yaratilishi shart — bola o'zini erkin va xavfsiz his qilishi kerak. Ota-onalar logopedik mashg'ulotlarga jalb qilinib, uy sharoitida mustahkamlash ishlari olib borilishi zarur.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, motor alaliya tashxisi qo'yilgan bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish murakkab, ko'p bosqichli va individual yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, nutqiy va nonutqiy tovushlarni shakllantirish va mustahkamlash bolaning tovush chiqarish malakasi, og'zaki ifoda imkoniyati va kommunikativ faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy logopedik uslublar bilan bir qatorda multimodal yondashuv, sensor o'yinlar, PECs tizimi, artikulyatsion gimnastika va logoritmika kabi yangicha metodikalar ham yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuvlar bolaning tovush chiqarish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga uning umumiy psixomotor qobiliyatlarini, emotsional holatini va ijtimoiy moslashuvchanligini ham ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: logopedik mashg'ulotlar bosqichma-bosqich olib borilishi, dastlab nonutqiy tovushlarni mustahkamlash va keyin ularni nutqiy tovushlarga aylantirish, har bir bolaning individual rivojlanish darajasi hisobga olingan holda metodlarni tanlash, ota-onalar va pedagoglar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda uy sharoitida mashqlarni davom ettirish zarur. Shu bilan birga, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash logopedik ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Логопедия / под ред. Л.С. Волковой. — М.: 2002.
2. Логопедия / Л. Мрминова, М. Аюпова. — Т.: 1993.
3. Ляпидевский С.С. Невропатология. — М.: 2001.
4. Поваляева М.А. Справочник логопеда. — М.: 2002.
5. Филичева Т.Б., и др. Дети с фонетико-фонематическим недоразвитием. — М.: Изд-во ГНОМ и Д., 2000.
6. Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления. — Санкт-Петербург: КАРО, 2006. — 12 с.
7. Mo'minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U., Yakubjanova D.B., Jalolova Z.M., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. — 157 b.

8. Ayupova M.Y. Logopediya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. — 560 b.
9. Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — Toshkent: O'qituvchi, 1994.
10. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. — 130 b.
11. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. — 432 b.
12. Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления. — Санкт-Петербург: КАРО, 2006. — 12 с.